

RUSTAMIY Salimaxon,

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
O'zbek tili va mumtoz sharq manbashunosligi
kafedrası professori, filologiya fanlari doktori
salimarustamiy@gmail.com*

E'NOT SAN'ATI

СЛОВЕСНАЯ ФИГУРА «ЭЪНАТ»

ARTISTIC FIGURE «I'NAT»

ANNOTATSIYA. *E'not* tovushdoshlikka asoslangan badiiy san'atlardan biri bo'lib, nazmda ham, nasrda ham qo'llanadi. U «tazyiq», «tashdid» va «iltizom-i luzum mo lo yalzam» deb ham yuritiladi va bu nomlarning eng so'nggisi mashhur hisoblanadi. Mazkur maqolada balog'atshunos olimlar, xususan Atoulloh Husayniyning e'not san'ati xususidagi qarashlari tahlil qilingan, uning kam qo'llaniladigan murakkab san'atlardan biri ekani dalillangan.

Kalit so'z va iboralar: *tovush, lafz, badiiy san'at, qofiya, nazm, nasr, iltizom, nutq.*

АННОТАЦИЯ. *Эънат* - одна из словесных фигур, используемая как в поэзии, так и в прозе. *Эънат* также называют «тазийк», «ташдид» и «илтизам-и лузум ма ла ялзам», причем последнее из этих названий является популярным. В данной статье проанализированы взгляды ученых-знатоков балагата, особенно Атауллы Хусайни, на «эънат», было доказано, что это одно из наименее используемых сложных словесных фигур.

Ключевые слова: *звук, слово, словесные фигуры, рифма, поэтика, проза, илтизам (необходимость), речь.*

ANNOTATION. *I'nat* is one of the verbal figures used in both poetry and prose. *I'nat* is also called "tazyik", "tashdid" and "iltizam-i luzum ma la yalzam", with the latter one being popular. The article analyzes the views of Balaghat scholars, especially Atullah Husaini, on "I'nat"; it was proved that *I'nat* is one of the least used complicated verbal figures.

Key words: *sound, word, artistic figures, rhyme, poetics, prose, iltizam, speech.*

Tilning moddiy jihati tovushdir. Bir yoki bir necha tovush ko'plab so'zlarning tarkibida uchraydi. So'zlarda mavjud bo'lgan tovushdoshlik tilda go'zallik hosil qilishga xizmat qiladi.

Badiiy san'atlarning ba'zilarini amalga oshirishda so'zlarning tovush jihati muhim

hisoblanadi va ular lafziy san'atlar deb yuritiladi [5:291-295; 7]. Lafziy san'atlar tovushlar mutanosibligini hosil qilish uchun so'zning ma'nodoshlari orasidan tovush jihatdan mos keluvchi shaklning tanlanishi bilan ajralib turadi.

Tovushdoshlik bir necha ko'rinishga ega bo'lib, bular nutqqa turli miqdor va darajada husn bag'ishlaydi. Bularning eng husndori va eng ko'p foydalaniladigani so'z oxiridagi tovushdoshlik bo'lib, undan nazmda qofiya va nasrda saj yasaladi [8:14; 6:239-240].

E'not ham tovushdoshlikka asoslangan badiiy san'atlardan biridir. Bu atama arabcha «أَعْنَتُ» («a'nata») fe'lining masdari bo'lib, «إِعْنَاتُ» («i'nāt») – «qiyin holga solish», «qiynab qo'yish» ma'nolariga ega. Fors va turkiy adabiyotda «e'not» deb yuritiladi. Atoulloh Husayniy uning «tazyiq», «tashdid» va «iltizom-i luzum mo lo yalzam» deb ham yuritilishi va bu nomlarning eng so'nggisi mashhur ekanini ta'kidlab o'tadi [Qarang: 2:102].

E'not lafzda yanada ortiqroq go'zallik hosil qilish uchun qo'llanadi. Arab balog'at ilmi olimlaridan «Miftohu-l-ulum» («Ilmlar kaliti») muallifi Abu Yoqub Yusuf Sakkokiy (1160-1229) va «Talxisu-l-Miftoh» («Miftoh»ga qisqartma) asari muallifi Jaloliddin Muhammad bin Abdurrahmon Qazviniyning (v.e. 1339) fikriga ko'ra e'not saj' yoki qofiyada raviy harfidan oldin zarur deb hisoblanmasa ham bir yoki bir necha maxsus harakat yoki muayyan harf keltirish bilan hosil qilinadi [2:102-103].

Rashid-i Vatvot e'notga «Bu shunday san'atki, uni kotib yoki shoir zarur bo'lmasa ham kalomni bezash uchun qo'llaydi. Kalom usiz ham tugal bo'ladi. U xuddi saj'ning oxiri va baytlar so'nggidagi raviy yoki radif tovush (harf)lardan oldin qo'yiladigan tovush (harf)lar kabi bo'ladi. Uni qo'llamasang ham zarari yo'q, chunki uni qo'llashdan maqsad kalomga zeb berishdan boshqa narsa emas» [10:119] deb ta'rif beradi va عتاب so'zlaridagi [t] va نغم رقم so'zlaridagi [q], صواب so'ziga so'zining qofiya qilinishi o'rinli, علم va رقم so'zlarida ham shunday. Lekin kalomni yanada go'zal va jozibali bo'lishi uchun [t] ga iltizom qilingan عتاب va [q] ga iltizom qilingan نغم رقم juftliklar tanlanadi, deb tushuntirish beradi.

Qur'ondan quyidagi misol keltiriladi [9:436]: فَأَمَّا الْيَتِيمَ فَلَا تَقْهَرْ وَأَمَّا السَّائِلَ فَلَا تَنْهَرْ [Bas, endi siz (ham) yetimga qahr qilmang. Soil (gado)ni esa (malol olib) jerkimang (MA 93/9-10, 596)]. Bu yerda تَقْهَرْ

va تَنْهَر soʻzlaridagi [h] eʼnotdir. Boshqa misol: *وجهه وسيم وفضله جسيم* (Yuzy goʻzal, fazilati yuksak), *وسيم* va *جسيم* soʻzlaridagi [s] eʼnot. Bu misolda raviy [m] tovushdir. Ayrim olimlar raviydan oldin kelgan ikki [a], [i] va [s] ni iltizom qilingan desalar, boshqa toifalari [i]ni iltizom deb hisoblamaganlar. Bu yerda [s] ning iltizomligi uning qofiya uchun shart emasligida va «وسيم»ga «كريم» ham qofiya boʻla olishidadir. «جسيم» va «وسيم»ning qofiyasida ehtiyojdan koʻra ortiq holat vujudga kelgan va bu har ikki soʻzda [s] larning mos kelganidadir.

Bu sanʼatga Atoulloh Husayniy keltirgan misollardan biri quyidagicha:

Hargiz nabuvad dame huzuru tarabam,
Har lahza shavad ziyoda ranju taʼabam,
Har dam alame digar rasad besasabam,
Alqissa, man az toliʼi xud dar ajabam.

Tarjimasi:

Menda bir nafas huzuru shodlik hech boʻlmaydi,

Ranju tashvishim har lahzada ortib boradi,
Har damda menga sababsiz bir alam yetib

turadi,

Qisqasi, men oʻz toleimdan ajabdaman [2:102, 334].

Atoulloh Husayniy aytadi: «Bu ruboiyda raviy harflaridan, yaʼni «b» lardan oldin ikki «a» keltirilipturkim, aslida shart emastur. Koʻpchilikning fikriga koʻra, agar «kutubam» (kitoblarim)ni «taʼabam» bilan qofiya qilinsa, joizdur, boshqa baʼzilarning fikriga koʻra birinchi «a» luzum mo lo yalzam qabilidindur, ikkinchisi esa lozimdur» [2:102].

Atoulloh Husayniy yana quyidagi misolni keltiradi:

Yo rab, gunaham agar sar to qadamaſt,
Doyim dil-i man az on nadim-i nadamaſt.
Navmid nayam ki, bo vujud-i karamaſt,
Isyon-i manu hazor chun man adamaſt.

Tarjimasi:

Yo rab, garchi gunohim boshdan oyoq boʻlsa ham dilim doim undan oʻkinchda.

Oʻzim noumid emasman, chunki karam bor, shu tufayli men va menga oʻxshaganning mingining isyoni hechdir [2:103,335].

Bu ruboiyda raviy «m» harfidir. Ayrim olimlar raviydan oldin kelgan ikki «a» va «d» ni iltizom qilingan desalar, boshqa toifalari «a»lardan birini iltizom deb hisoblamaganlar. Husayniyning fikriga koʻra «d»ning iltizomligi uning qofiya uchun shart emasligida va «nadamaſt»ga «karamaſt»

ham qofiya boʻla olishidadir. «Qadamaſt» va «nadamaſt»ning qofiyasida ehtiyojdan koʻra ortiq holat vujudga kelgan va bu har ikki soʻzda «d»larning mos kelganidadir.

Quyidagi misollarning birinchi va ikkinchi baytlarida «m», uchinchisida «k», toʻrtinchisida «r» va beshinchisida «d» harflari eʼnotdir.

1. Necha gʻamim oʻtin ahli zamongʻa yetkuray,
Sharoru dudin aning osmongʻa yetkuray [1:489].

2. Bogʻladim afgʻongʻa bel naydek, seni koʻrgan zamon,

Zaʼfdin qilding meni oxir beli bogʻliq somon [1:444].

3. Oncha koʻnglumdadur gulshani hijron tikani,

Ki nazar solmas anga gʻamzai novak fikani. [1:587]

4. Ey xush ul kunlarki vasli bazmida masrur edim,

Shodu xurram davlati diydorigʻa magʻrur edim [4:49].

5. Yovuqlashib quechishti ikki dildor,

Topishib bir zamon vasl ichra diydor [3:168].

Shuningdek, Atoulloh Husayniy aslida lozim boʻlmagan ketma-ket kelgan ikki harf orqali eʼnot hosil qilinishi mumkinligini ham taʼkidlaydi [2; 103]. Masalan: buni «hoyil» va «moyil», «zoyil» soʻzlarida qofiya uchun zarur boʻlmasa ham, raviydan oldin keltirilgan [o] va [y] tovushlarida koʻrish mumkin.. Masalan:

Noʻzuk harir agar taninggʻa hoyil oʻlmagʻay,

Koʻrsa jimod mumkin emas moyil oʻlmagʻay. [1:609]

Bu holatni mazkur baytdagi «hoyil» va «moyil» soʻzlarida qofiya uchun zarur boʻlmasa ham, raviydan oldin keltirilgan «o» va «y» harflarida koʻrish mumkin.

Lutfiyda ham shu soʻzlar qofiyasini uchratamiz:

Oʻz-oʻzi birla koʻngli boʻldi moyil,

Vale ul dam uyotdin boʻldi hoyil [3:120].

Atoulloh Husayniy quyidani misolni keltiradi:

Doyim dil haſt ba roʻyad moyil,

Hargiz nashavad mehr-i tu az dil zoyil...

Tarjimasi:

Koʻngil doim yuzingga moyil

Hech vaqt sening mehning koʻngildan ketmaydi [2:103,335].

Va shunday deydi: «...raviy oldida (aslida) lozim boʻlmagʻan ikki harf iltizom qilinibdur va alar «o» va «y»dur, chunki agar «dil» va «qotil»

so'zlarin «moyil» va «zoyil» so'zlari bila qofiya qilinsa, joyizdur» [2:103].

Quyidagi misollarda «o» va «l», «o» va «m» harflari e'not hosil qilgan:

Dardoki lahza-lahza fuzundur malolatim,
Hijron malolatidin erur sa'b holatim [1:426].

Ma'ni aytur bu so'zga bir komil,
Ki so'zi erdi haq sori shomil [1:691].

Atoulloh Husayniy e'not haqida ma'lumot berar ekan, Sharaf Romiyning boshqa olimlar kabi fikrini va uning quyidagi misollarini keltirib o'tadi: «sharob», «shabob», «shitob»dagi «sh», «tashrif», «ta'rif», «tasrif»dagi «t» va «r» luzum mo lo yalzamdir [Qarang: 2:103].

E'not ayrim olimlar tomonidan «iltizom» deb ham yuritiladi [11:451]. Lekin u baytda tovushning emas, balki so'zning qofiyadan boshqa o'rinlarda qaytarilishidan hosil bo'ladi [Qarang: 8:53].

Masalan:

Bilib keltirguchidin barcha ahvol,
Yeshib butxonag'a yutordi darhol.
Ko'rub rahbon o'shul ikki sanamni,
Nekim butxonag'a urdi raqamni.
Yuz eyurgach qamuq butlardin ul pir,
Ham uldam qiblasini qildi tag'yir.
Ko'rub o'z butlarini bozguna,
Alarning ko'rkidin oldi namuna
Butu butgar nedur, butxona kimdur?
Agar but ul mening sevgan butimdur
Topunur jonsizin butlarga kofir,
Agar jonliq sanam suysa, yeri bor [3:177].

Lutfiyning «Gul va Navro'z» dostonidan olingan ushbu parchaning birinchi va ikkinchi baytlarida «butxona», qolganlarida «but» so'zlari iltizom qilingan. Ba'zi olimlar iltizomni alohida san'at hisoblaydilar.

E'not mumtoz shoirilar asarlarini bezab kelgan badiiy san'at turlaridan biri bo'lib, barcha lafziy san'atlar kabi fikrni ravon, ohangdor ifodalashda, o'quvchi va tinglovchiga emosional zavq berishda, ma'lumotning yodda qolishini osonlashtirishda ahamiyati katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. III. –Т.: ЎзР ФА нашриёти. 1959.
2. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. Форсчадан Алибек Рустамов таржимаси. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981.
3. Лутфий. Танланган асарлар. Иккинчи нашр. –Т.: ЎзР давлат бадий адабиёт нашриёти. 1960.
4. Нодира девони. Нашрга тайёрловчи М. Қодирова. –Т. 1963.
5. Рустамий А. Навоийнинг бадий воситалари. Сайланма. 1-жилд. – Т.: Zilol biloq. 2022. – Б. 291-334.
6. Рустамий А. Тил шарофати. Сайланма. 2-жилд. – Т.: Zilol biloq. 2022. – Б. 237-243.
7. Rustamiy S.A. Content of components of the science “balāḡat”. Academia: An International Multidisciplinary Research Journal. 2020/10. – P. 1332-1337.
8. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. –Т: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат н-ти. 1979.
9. أحمد هاشمي. جواهر في المعاني والبيان والبدیع. بيروت-لبنان. 2004.
10. رشيد الدين وطواط. حقائق السحر في دقائق الشعر. ترجمة إبراهيم أمين الشواربي ، تقديم أحمد الخولي ، المركز القومي للترجمة ، القاهرة ، ط 2 ، 2009
11. ملا هادي بن المهدي السبزواري. الراح القراح. صححه وقدم له وعلق عليه مجيد هادي زاده. تهران. 2002